

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI PORTRET RANGTASVIRI ORQALI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Norqulova Dildora,

Samarqand davlat universiteti assistenti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.042>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyani rivojlanirishning dolzarbliji uning ikki tomonlama muhim jihatlari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yanada yaxshilashga, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlanirish modeli vaziyatni yaxlit tushunish, pedagogika oliy ta'lim muassasalari doirasidan tashqariga chiqish, o'r ganilayotgan bo'lajak o'qituvchilar bizning misolimizda bo'lajak o'qituvchilarni faoliyat sohasidagi o'zgarishlarni oldindan aytish va bu o'zgarishlarni bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida hisobga olish zarurligini o'z ichiga olishi, bo'lajak o'qituvchi faoliyatini yaratish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, og'zaki metod, mustaqil ta'lim, o'qitishning mantiqiy metodi, muammoli izlanish, ko'rgazmali metod, induktiv va deduktiv metodlar, ilmiy metodlar, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari, pedagogik texnologiya, ijodiy faoliyat, kasbiy faoliyat

МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ РАСКРАСКИ ПОРТРЕТА

Норкулова Дилдора,

ассистент Самаркандского государственного университета

Абстракт. В данной статье рассматривается актуальность развития профессиональной компетентности будущих учителей, ее двояко важные аспекты, дальнейшее совершенствование профессионального мастерства будущих учителей, модель развития профессиональной компетентности будущих учителей, комплексное понимание ситуации, педагогика со стороны В рамках выходящих вузов, изучаемых будущих учителей, в нашем примере входит необходимость прогнозировать изменения в сфере деятельности будущих учителей и учитывать эти изменения в процессе подготовки будущих учителей, такие вопросы, как создание рассмотрена модель деятельности будущего учителя.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, устный метод, самостоятельное обучение, логический метод обучения, проблемное исследование, демонстративный метод, индуктивный и дедуктивный методы, научные методы, методы контроля и самоконтроля, педагогическая технология, творческая деятельность, профессиональная деятельность.

MODELING THE PROCESS OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS THROUGH PORTRAIT COLORING

Norkulova Dildora,

assistant of Samarkand State University. dildor.norkulova@mail.ru

Abstract. In this article, the relevance of the development of professional competence of future teachers, its twofold important aspects, further improvement of the professional skills of future teachers, the model of development of professional competence of future teachers, comprehensive understanding of the situation, pedagogy from the framework of higher

educational institutions going out, future teachers being studied, in our example, include the need to predict changes in the field of work of future teachers and take these changes into account in the process of training future teachers. Issues such as creating a model of future teacher activity are covered.

Key words: professional competence, oral method, independent education, logical method of teaching, problem research, demonstrative method, inductive and deductive methods, scientific methods, control and self-control methods., pedagogical technology, creative activity, professional activity

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammolarini hal etishda ma'lum qiyinchiliklar va ziddiyatlar mavjud. Ularni bartaraf qilish uchun pedagog faoliyati mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda shaxs faoliyatining tuzilishini puxta o'rghanish talab etiladi. Bugungi kunda pedagogka oliv ta'lif tizimi oldida ta'lif-tarbiya berish sohalariga yuqori malakali va chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislar etkazib berish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Pedagogika oliv ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari tarkibi ta'limning to'rtta shartini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak, bular: o'z fanini a'lo darajada bilish, egallagan kasbini jon-dilidan sevish va talabalarda fanlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, amaliy ishlarni hozirgi davr talablari asosida uyushtirish, chuqur bilimga ega bo'lish kabilardir. Bular o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv jarayonini davlat ta'lif standartiga mos ravishda, pedagogik texnologiya va zamонавиу axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish oliv ta'lif muassasasi o'qituvchilaridan yuqori malakani talab qiladi. SHuning uchun bo'lajak o'qituvchilar quyidagi ta'lif metodlarini o'zlashtirgan holda, ularni talabalarga singdirishlari zarur:

- 1) og'zaki metod (ma'ruza, suhbat, hikoya va boshqalar);
- 2) amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi;
- 3) mustaqil ta'lif shakllari;
- 4) o'qitishning mantiqiy metodi;
- 5) muammoli izlanish (reproduktiv) metodi;
- 6) ko'rgazmali metod;
- 7) induktiv va deduktiv metodlar;
- 8) ilmiy metodlar;
- 9) o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Pedagogik faoliyat bu yuksak kasbiy mahorat va pedagog shaxsining xususiyatlari sintezi, ta'lif – tarbiya jarayonini tashkil etish uslullarini egallash va shaxsdagi kasbiy kompetensiyani rivojlantirish sifatlari mavjudligi, sohada to'plangan kasbiy tajribani ijodiy o'zlashtirish va yangilash jarayonidir. Bu ma'noda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbliji uning ikki tomonlama muhim jihat: birinchidan, bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy faoliyatning dastlabki davrlaridanoq tarbiyalash va ta'limdagi muammolarning echilishiga faol jalb etilishi, ikkinchidan ta'lif jarayonining sub'ekti hisoblangan o'quvchi shaxsining sifatli va kelajakka yo'naltirilgan ta'lif olishining ta'minlanishi, uning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratilishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda pedagogika nazariyasining rivojlanishi hamda ta'lif va tarbiyaning yaxlit tizimini hozir aynan faoliyat kontekstida tushunish zarurdir. SHu jihatdan, faylasuf olim V.S.Biblerning faoliyat shakllanishi nazariyasi e'tiborlidir, u fanning faoliyat fenomeni sifatida tushunilishi va rivojlantirilishi zarurligini ta'kidlaydi. V.S.Biblerning asosiy g'oyasiga ko'ra, o'qitish va tarbiya jarayoni turli faoliyatlarning muloqoti va o'zaro hamkorlik qilishidan iborat deb tushuniladi. Bu o'qituvchining katta nazariy tayyorgarligini, mahoratini, madaniy muloqot olib borish uquvini,

yuksak kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini belgilaydi. Kasbiy faoliyat tarixan shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklar, axloqiy me'yorlar, faoliyat namunalari, usullarining majmui ekanligi nazarda tutiladigan bo'lsa, uning nihoyatda xilma-xil ekanligini va uni inson hayoti davomida o'zlashtirib olishi mumkin emasligini hisobga olgan holda, ta'lim va tarbiya muassasalari, o'qituvchi shaxsi oldida turgan eng muhimlarini tanlab olish zarur bo'ladi. SHu o'rinda biz bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish tuzilmasi-modeli va uning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilamiz. Ta'kidlash zarurki, «mutaxassis modeli» tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik olimlar mutaxassis modeli deganda, muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassisning umumlashtirilgan obrazi hisoblangan, o'rganiladigan ob'ektning asosiy tavsifini aks ettiruvchi va bayon etuvchi o'xshashlikni tushunishadi. Mazkur tushunchaga N.M.Boritko tomonidan birmuncha boshqa mazmun kiritiladi. Mutaxassis modeli – bu oliv ta'lim muassasasida mutaxassislar tayyorlash jarayonini tartibga soluvchi o'quv rejalar, dasturlar va boshqa hujjatlarning aks ettirilishidir. YA'ni, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi modeli eng umumiy ko'rinishi o'zida ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-boshqaruv, axloqiy bilimlarning, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan xususiyatlar, ko'nikmalarning hajmi va tuzilmasining sxematik ifodalanishini aks ettiradi. SHu qoida qabul qilinganda, istalgan mutaxassis modeli yaratish imkon bo'lgan bo'lar edi, hozir gap faqat uni to'ldirish haqida bormoqda, deb aytish mumkin. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeliga ta'rif bergan va ayni vaqtida uning texnologiyasini bayon qilgan bunday ko'plab talqinlarni uchratish mumkin. Masalan, N.A.Muslimov, eng maqbul o'quv rejasi buyurtmachi sifatida korxonalarning mutaxassisiga qo'yiladigan talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak bo'lgan talaba modeli asosidagina tuzilishi mumkin, deb hisoblaydi. Boshqacha nuqtai nazar tarafdirleri ham mavjud. Ular mutaxassisning modeli tushunchasiga mutaxassisning bilimi, malaka va boshqalarni ham kiritishadi. Tadqiqotimizda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash modeli – bu faqat o'quv rejasi, dasturi va boshqa hujjatlarni ko'zda tutuvchi izchil konsepsiya emas, chunki u bo'lajak o'qituvchi faoliyatini o'rganishni nazarda tutmaydi, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosini tashkil etuvchi sifatlarini ochib berishga xizmat qiladi. SHularni inobatga olib bo'lajak o'qituvchi tayyorlash modeli asosiga uning faoliyati modeli qo'yilsa, fikrimizcha, eng maqbul model loyihashtiriladi. Unga qo'yiladigan bugungi va kelajakdagi talablar, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi muhim nuqsonlarning oldini olish muammozi ana shu modelda o'z ifodasini topadi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli vaziyatni yaxlit tushunish, pedagogika oliv ta'lim muassasalari doirasidan tashqariga chiqish, o'rganilayotgan bo'lajak o'qituvchilar bizning misolimizda bo'lajak o'qituvchilarni faoliyati sohasidagi o'zgarishlarni oldindan aytish va bu o'zgarishlarni bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida hisobga olish zarurligini o'z ichiga olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi faoliyati modelini yaratish murakkab va ko'p qirrali vazifa bo'lib, uni hal etish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelining asosiy parametrlarini dastlab farazlar tarzida, so'ngra tadqiqot darajasida ajratib ko'rsatish;
- modelni loyihalash uchun uning ko'rsatkichlarini tanlash, konstruksiyalash, standartlashtirish;
- bo'lajak o'qituvchini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelini yaratish uchun metodik asoslarni ishlab chiqish. So'ngi yillarda respublikamizning qator olimlari tomonidan ham u yoki bu pedagogik jarayonni modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, N.SHodiev talabalarni kasbga yo'naltirish ishlariga tayyorlash modelini, N.Sayidahmedov esa bo'lajak o'qituvchilarni yoshlarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatiga rahbarlik qilishga tayyorlash modelini yaratdilar. SHuni alohida ta'kidlash joizki, N.Sayidahmedovning tadqiqotida o'qituvchi faoliyati modeli tuzilmasi nafaqat matn tarzida,

bałkı umumiy ko‘rinishdagi sxema tarzida ham keltiriladiki, bu ixtiyoriy pedagogik faoliyatni modellashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ayniqsa, ijodiy faoliyat texnologiyasiga asoslanishni talab etadigan ijodiy faoliyat texnologiyalarini qo‘llash samaralidir. Ijodiy faoliyat texnologiyalari hamda faol va interfaol metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini to‘g‘ri baholash va o‘z nuqtai nazarini yanada namoyon qilish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi. Ijodiy faoliyat texnologiyasining mazmuni o‘zida kognitiv – amaliy faoliyat – refleksiya birligi va ana shu bosqichlarni har birida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajalari (anglash, tushunish, munosabat va fikrlash) ni aks ettirdi. Bizning fikrimizcha, kasbiy kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchi umumiy faoliyatning kasb sohasida namoyon bo‘lishidir.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modelni tuzish mantiqi ta’limni insonparvarlashtirish, madaniy va ma’naviy yaratuvchilik faoliyatining shart-sharoitlarini shakllantirish tamoyillariga amal qilish mantiqiga muvofiq keladi. Tadqiqotimizga ko‘ra, pedagogik oliv ta’lim muassasalari tizimida muayyan o‘qituvchi ixtisosligidan qat’i nazar, talabalarni bo‘lajak kasbiy faoliyatiga moslashishini ko‘zda tutuvchi omillarni e’tiborga olgan holda tashkillashtirilishi kerakligini ta’kidlash mumkin. Bu jarayon ularning ongi va faoliyatining o‘ziga xosligini belgilab beradi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilimlarining talqini pedagogik ijod sifatida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining faoliyatga yaxlit munosabatidan, pedagogik muomala va faoliyat uslubini belgilovchi madaniy muloqotdan kelib chiqadi. Tadqiqotimizda, nazariy model ko‘rinishida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini turli darajalarda mantiqiy o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqdik. Pedagogika oliv ta’lim muassasalari ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiya rivojlantirish jarayonining yaxlit dialektik manzarasini aks ettirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu jarayon ularning ongi va faoliyatining o‘ziga xosligini belgilab beradi. Ta’lim jarayonining samaradorlik, fanlararo aloqadorlik, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi omili sifatida qaralishini maqsad qilib qo‘ydi.

Adabiyotlar

1. Avliyaqulov N.X. Pedagogik texnologiya. Darslik. –T.: Cho‘lpon, 2012. – 208 b.
2. Azizzxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
3. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлилигини ривожлантириш механизmlарини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2019. – 225 б.